

E-LEARNING



**ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ:  
МУАММОЛАР, ЕЧИМЛАР  
ВА ИСТИҚБОЛЛАР**



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НИЗОМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА  
УНИВЕРСИТЕТИ

ФИЗИКА – МАТЕМАТИКА ФАКУЛЬТЕТИ

ИНФОРМАТИКА  
ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ  
КАФЕДРАСИ



ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ: МУАММОЛАР,  
ЕЧИМЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР

Вазирлик тизимидаги олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари  
микёсида илмий-амалий анжуман материаллари

ТОШКЕНТ – 2017



## OMMAVIY ONLAYN KURSLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM JARAYONINI TASHKILLSHTIRISH METODIKASI (Tasvirlarga raqamli ishlov berish fani misolida)

Bagbekova Laylo Kadirbergenovna - Nizomiy nomidagi TDPU Kasb-ta'lim nazariyasi: (Informatika va axborot texnologiyalari) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Jahonning barcha oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'lim sifati, ya'ni sifatlil kadrlar tayyorlash hamma vaqt ham dolzarb masala bo'lib kelgan. Bugungi rivojlanib borayotgan ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'lim jarayonini ommaviy ochiq onlayn kurslar (OOC) orqali tashkil etishimiz mumkin.

OOC — bu ommaviy ochiq onlayn kurslar (ingliz. — Massive Open Online Course, MOOC) bo'lib, ular jahonning ko'plab universitetlari tomonidan Yer sharining istalgan nuqtasida bo'lgan har qanday insonga masofaviy texnologiyalar yordamida professor-o'qituvchilar va yuz minglab talabalar (kurs tinglovchilari)ga erkin muloqotni tashkil qilish imkoniyatini beruvchi akademik kurslarni taqdim etadi.

1. edX — dunyoning eng yaxshi universitetlari tomonidan taqdim etiladigan onlayn kurslar.

2. Coursera — dunyo oliygohlarining eng yaxshi ustozlari bepul dars o'tadigan sayt.

3. Coursmos — qisqa vaqtda o'rganish mumkin bo'lgan, kichik hajmli ilm kurslari.

4. Highbrow — kundalik email manzilingizga yuboriladigan dars kurslari.

5. Skillshare — dunyoqarashni shakllantiradigan kurslar.

6. Curious — professional ko'nikmalarni shakllantirish uchun darslar.

7. Lynda — texnologiya, biznes va yaratuvchanlik kurslari.

8. CreativeLive — dunyo mutaxassislarining kurslari.

9. Udemiy — kompyuterga aloqador sohalarga oid kurslar. Bu kurslardan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tish bilan bir qatorda pullik ham hisoblanadi. Lekin ayrim o'rganuvchilarga qiyinchilik tug'dimaslik uchun yana bepul onlayn kurslar ham mavjud.

**Hozirda internet orqali quyidagi onlayn kurslar bepul taqdim etilmoqda:**

### Introduction to Computer Science

Garvard universiteti tomonidan taqdim etilayotgan bu kursda kompyuter va dasturlash san'atidan boshlang'ich ma'lumot olasiz. Kursni muvaffaqiyatli tamomlaganlar Garvarddan guvochnoma oladi. Kurs bepul va unga yozilish uchun biror shart qo'yilmagan.

### Softwear as a Service

Dasturlash injenerligi sohasining asosiy tamoyillari haqidagi fan. Unda "Ruby on Rails" dasturlash tili bilan ishlanadi. Ushbu darsni olish uchun Java, C#, C++, Python yoki Ruby nomli dasturlash tillarini bilish lozim. Kursni muvaffaqiyatli tamomlaganlar Kaliforniya universitetining sertifikatini oladi.

### Introduction to Computer Science and Programming

Kompyuter fani va dasturlashga oid yana bir kurs. Massachusetts Texnologiya instituti taqdim etadi. Kursga yozilish uchun biror shart qo'yilmagan. Yuqori maktab

darajasida matematikani bilish kifoya qiladi. Darsda o'tiladigan qo'llanmani sotib olishingiz mumkin. Ammo kitobni sotib olish majburiy emas. Muvaffaqiyatli bitirganlar, albatta, Massachusetts Texnologiya instituti sertifikatini qo'lga kiritadi.

### Foundations of Computer Graphics

Kompyuter grafikasi asoslariga oid fan. Kaliforniya universiteti taqdim etadi. Talabalar 3D o'lchamdagi sahnalarni yaratishni o'rganadi. Ushbu darsga yozilish uchun qo'yiladigan talabalar:

1. C/C++ dasturlash tilini yaxshi bilish;

2. Yaxshi jihozlangan kompyuterga ega bo'lish (Windows, Mac OSX or Linux);

3. Yuqori maktab darajasida matematikani bilish.

Bitirganlar Kaliforniya universiteti shahodatnomasiga ega bo'ladi.

Kasb-ta'lim fakulteti "Axborot texnologiyalari" kafedrasida Kompyuter grafikasi va dizayn yo'nalishi 3-kurs talabalariga "Tasvirlarga raqamli ishlov berish" fanidan "Adobe Photoshop dasturida instrumental yordamida maxsus effektlar yaratish" mavzusi mustaqil ish sifatida beriladi. Mustaqil ishni aynan yuqorida ko'rsatilgan bepul onlayn kurslaridan foydalangan holda o'rganiladi.

## FARMATSEVTIKADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI «MOODLE» TIZIMI ASOSIDA O'QITISHDA ELEKTRON-TA'LIMNI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

Baydullayev A.S., Djurayeva S.I. - Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

Ta'lim islohotlarining asosiy dasturamal asoslari bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" zamonaviy bilimlar tizimiga keng yo'l ochish va ta'limni takomillashtirishda yangi informatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan unumli foydalanishni dolzarb vazifa sifatida qo'ydi. Yoshlarni yuksak ahloqli, ma'naviyatli va ma'rifatli, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lishga, jamiyat va oilasi oldida o'z ma'suliyatini chuqur anglab yetuvchi, raqobatbardosh, malakali mutaxassis qilib tayyorlash va tarbiyalash vazifalarni hal etish uchun ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish, ta'limni optimallashtirish, insonparvarlashtirish va innovatsion metodlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnik taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Aynan shu maqsadda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Hozirgi kunda talabalar tez, ko'p, ishonarli ma'lumotlarga ega bo'lishlari va o'zlari mustaqil bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shular jumlasidan, elektron majmualar talabalar uchun fanga oid bo'lgan muhim ma'lumotlarni istalgan masofadan o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanishlari mumkin.

Ochiq kodli «Moodle» dasturiy kompleksi Internet tarmog'idan foydalanib, ta'lim jarayonini boshqarish uchun maxsus yaratilgan (Learning management system – LMS) tizimdir.

Tizimda ishlash uchun, MySQL, MBBT harakatini qo'llaydigan va PHP preprotsessorli har qanday platformada ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan server zarurdir.

Tizimni joylashtirish (Server konfiguratsiyasi va dasturiy ta'minotni qo'shgan holda) bir necha kunni oladi va so'ng shaxsiy ta'lim strukturasi tarkib toptirish mumkin. Moodle tizimida har qanday ta'lim funksiyalarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan, hususan:

- ta'lim oluvchiga har qanday ko'rinishda (tekst, fayl, rasm va hk..) javoblarni jo'natish imkonini beruvchi topshiriqlar;
- boshqarishning keng imkoniyatlarini ko'rib chiqish uchun forumlar;
- chatlar;
- GIFT i HotPot formatlarini o'z ichiga olgan, testlarni tayyorlashning har qanday tizimidagi topshiriqlarni qabul qilish imkoninini beruvchi test tizimlari;
- o'quv kurslarini boshqarish tizimi (mavzular soni, strukturasi, kalendar grafik va b.);

- yil davomida hamma kategoriyadagi foydalanuvchilarning loginlarini saqlab, harakatlarni hisobga olish tizimi;
- har xil kategoriyadagi foydalanuvchilarning kirish huquqlarini cheklash va funksiyalarni taqsimlashni ta'minlovchi avtorizatsiya va mualliflashtirish tizimi;
- xabarlar almashish tizimini rivojlantirish.

Toshkent farmatsevtika instituti markaziy uslubiy kengashi qarori bilan Moodle masofaviy ta'lim tizimini o'quv jarayonida qo'llanish uchun tavsiya etildi.

Har bir fan bo'yicha ma'lumotlar bazasini ta'minlash va to'ldirish fan bo'yicha professor-o'qituvchilarga topshirildi.

Moodle tizimi uchun Toshkent farmatsevtika instituti Axborot texnologiyalari markazida alohida yaratilgan serverga o'rnatilgan va <http://moodle.pharmi.uz/moodle/> adresi bo'yicha foydalanish mumkin.

2015-2016 o'quv yilining II-semestri va 2016-2017 o'quv yilining I,II-semestridan <http://moodle.pharmi.uz/moodle/> sayti tajribadan o'tkazildi va Informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan talabalarni o'qitishda qo'llanilib aprobatseyadan o'tdi.

Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, Moodle tizimidan o'quv jarayonida foydalanish professor-o'qituvchilar uchun ham, talabalar uchun ham qulay ekanligi aniqlandi va talabalar tomonidan boshqa fanlarni ham Moodle tizimidan foydalanib o'qitish takliflari kiritildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анисимов А.М. «Работа в системе дистанционного обучения Moodle». Учебное пособие 2-е издание, исправленное и дополненное. – Харьков-ХНАГХ., 2009. –С. 6-34.
2. Клейносова Н.П., Кадырова Е.А., Телков И.А., Хруничев Р.В. «Проектирование и разработка дистанционного учебного курса в среде Moodle 2.7». Учебно-методическое пособие Рязанский государственный радиотехнический университет. – Рязан., 2015. –С. 55-141.
3. Baydullaev A.S., Samigova N.X., Qodirova G.A. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. Toshkent farmatsevtika instituti professor-o'qituvchilarining mustaqil ta'limda Moodle tizimidan foydalanishlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. –Toshkent., 2017. 44-81 b.
4. <http://rumoodle.com> – Moodle – учебник для начинающих.
5. <http://moodlebook.ru> – Учебное пособие Moodle.

#### IQTIDORLI VA QOBILIYAT TUSHUNCHALARI TAHLILI

Delov To'liq Erkinovich - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, assistent

"Iqtidorli farzandlar" iborasi muayyan mutanosiblikni anglatadi. Bu iborani aytganimizda biz maxsus bolalar guruhining mavjudligini e'tirof etamiz. Ushbu bolalar, ta'rifimiz bo'yicha, tengdoshlaridan turli sifatleri bilan farq qiladi. Ushbu yondashuv ancha zaif va an'anaviy tarzda mahalliy o'qituvchilar va psixologlar tomonidan tanqid qilinmoqda, ammo bu tushuncha butunlay maqbuldir va shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu holat haqiqiy vaziyatni aks ettiradi. Iqtidorli bolalar - bu o'z tengdoshlaridan rivojlanishda ustun bo'lgan bolalardir. "Iste'dodli" tushunchasiga kiritilgan kontentdan qat'i nazar tashxis usullari bu guruhning mavjudligi jihatdan statistik aniqlanadi.

Shunday qilib, "iste'dodli bolalar" atamasi bilan birga, ularning eksklyuzivligiga urg'u berib, yana bir yaqin, ammo ayni paytda mazmun jihatidan farqli ravishda "bolalar iste'dodi" degan ibora mavjuddir. Shunga ko'ra, pedagogik nazariya va amaliyotda 1-ildizdan kelib chiqqan ikkita global muammolar mavjud:

- iqtidorli va iste'dodli bolalarni o'qitish va o'qitish tizimini yaratish va yaratish nazariyasini ishlab chiqish;

- har bir bolaning salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan nazariy asos va amaliy choralarni ishlab chiqish.

Shuning uchun "iste'dodli" tushunchasini rivojlantirish nafaqat iste'dodli bolalarni tarbiyalash muammosini hal qilish uchun asos bo'libgina qolmasdan, balki butun inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan didaktik tizimni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Va bu ma'noda asosiy muammo sifatida nafaqat diagnostika va rivojlanish prognozlarini usulbularini, balki ta'lim faoliyati maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, shakllari va usullarini yanada rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.